

XUDOYORXON DAVRIDA QO’QON XONLIGIDA TA’LIM TURLARI

Hotamova Sevara Sulaymon qizi

Buxoro davlat Universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo’qon xoni Xudoyorxon davrida madrasa qurilishi va ta’lim sohasida katta islohotlar qilinganligi va mazkur davr madrasalaridagi ta’lim xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: madrasa, ta’lim, masjid, ijtimoiy hayot, shoir, uyezd, volost, mahalla, maktab, muarrix, imom, otinoyi,

XIX asr boshlarida Qo’qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning o’rni beqiyosdir. Bu ilm o’choqlari xalqni ma’rifatli qilish, an’anaviy ta’limni va madaniy-ma’naviy hayotni yuksaltirishda katta rol o’ynagan.

E.S.Vulfson mahalliy aholining bola tarbiyasi borasidagi an’analarini kuzatib, o’zining tahliliy fikrlarini bildirib o’tgan. Unga ko’ra, mahalliy aholi, bola 4 yoshdan o’tib, gapirishni boshlaganda, uning kamolot tarbiyasi bilan shug’ullanishga kirishgan. Bu paytda, asosan, diniy tushunchalar, salomlashish odobi o’rgatilgan¹. Qizlar esa erta turmushga chiqishi bois 8 – 9 yoshga yetmay uy-ro’zg’or ishlarini o’rganishni boshlaganlar.

Turkiston general-gubernatorligi arxiv fondlari va kuzatuvchi tadqiqotchilarining fikricha, XIX asrda mahalliy maktablar ikki xil bo’lgan. Birinchisi quyi maktablar bo’lib, yuqorida aytilganidek, masjidlarda faoliyat yuritgan. Ikkinchisi yuqori maktablar bo’lib, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda ish olib borgan². Lekin aksariyat tadqiqotchilar maktablarni faoliyat xarakteriga ko’ra jamoat, xususiy, shahar va qishloq maktablariga bo’lganlar. Xususiy maktablar, odatda, o’ziga to‘q oilalar tomonidan o’z farzandlari ta’limi uchun tashkil etilgan va ularda 4 – 5 nafar bola o’qigan. Masjidlarda maktab, odatda, masjidni qurdirgan shaxs tomonidan tashkil etilgan bo’lib, 10 – 30 ta bola joylashadigan xonadan iborat edi. Bu maktabda o’qish 2 – 5 yil davom etgan. O’qish erta tongda boshlangan, soat 10 – 11 da uyga nonushta qilishga qaytganlar. Tushda esa yana maktabga qaytib, kechgacha yurishgan. Masalan, Toshkent, Qo’qon va Buxoroning bir qator madrasalarida tahsil olgan muarrix Muhammad Solihxo’janing o’zi shahar ziyolilari toifasidan bo’lib, uzoq yillar o’zi imomlik qilgan masjid qoshidagi maktab – dabiristonda bolalarga ta’lim berish bilan mashg’ul bo’lgan. Mazkur asardagi ma’lumotlarga qaraganda, u o’zi maktabdorlik

¹ O’zR MDA. I.1-fond, 18- ro’yxat, 29-ish, 37-varaq..

² Nabiev R. Vakfnoe xozyaystvo Kokandskogo xanstva... – S.276 – 277.

qilgan masjidda imomlik qilish bilan birga shu yerda istiqomat qilgan. Uning maktabi faqatgina dars beriladigan ta'lim o‘chog‘i emas, balki maktabdor (ya’ni Muhammad Solihxo‘ja)ning madrasada birga saboq olgan do‘srtlari yig‘ilib ilm-ma'rifat borasida bahslar uyushtiradigan va o‘sha zamon ijtimoiy-siyosiy voqealarini muhokama qiladigan maskan ham edi.³

Maktab dasturi quyidagi kitoblardan iborat bo‘lgan: 1. “Chahor kitob” (to‘rt kitob) – diniy urf-odatlarni o‘rgatuvchi mazkur darslik to‘rt kitobdan iborat bo‘lgan: a) Sharaf Buxoriyning “Nomi xaq” asari bo‘lib, unda tahorat, uning tartiblari va namoz tartib – qoidalari; Ramazon oyida Ro‘za tutish qonun qoidalari haqidagi asoisy tushunchalarni bergen; b) “Kulliyot – Chaxor Fasl” – o‘quvchini islom dinining imon, ahkom va arkon kabi tushunchalar bilan tanishtirishga mo‘ljallangan. v) “Muhimmat ul-muslimin” (Musulmonchilikning muhim masalalari) musulmon kishi uchun farz bo‘lgan asosiy tushunchalar haqida ma'lumot bergen; g) Farididdin Attorning “Pandnomai Attor”. Kitob mashhur so‘fiy shoir Shayx Faxrididin Muhammad bin Abu Bakr Ibrohim Attor qalamiga mansub. 2. “Xaftiyak” – forscha so‘z bo‘lib, “Qur‘oni Karim”ning yettidan biri degan ma’noni anglatadi va bu o‘quvchilarga atroflicha o‘rgatilgan.. 3. “Ahloqnama” – ahloq-odob qoidalari bayon etilgan. 4. Fors va turk tillarida bitilgan So‘fi Olloyor, Fuzuliy, Bedil, A. Navoiy va F. Attor she’rlari va asarlari Ayrim maktablarda yosh, balog‘atga yetmagan o‘g‘il bolalar va qizlarni domulla yoki otinoyi istisno tarzida birga o‘qitgan. Arxivda saqlanayotgan “Farg‘ona viloyati Andijon uezdi o‘quv yurtlarining 1886 yilgi ro‘yxatida” faqat otinoyilar dars beradigan qizlar maktablari ro‘yxatga olingan.

Odatda, otinoyilar qizlarni o‘z xonadonlarida o‘qitgan. Bunday qizlar maktabi ko‘p edi. Lekin ularni rus ma’murlari tomonidan hisobga olish qiyin bo‘lgan. Shu sababli bunday qizlar maktablari ro‘yxatga kiritilmagan. Ro‘yxatga olingan qizlar maktablari yettita, balog‘atga etmagan yosh o‘g‘il bolalar va qizlar birga o‘qigan maktablar to‘rtta bo‘lgan. Biz quyida shunday maktablar ro‘yxatini keltiramiz:

1. 1836 yili barpo etilgan Qo‘qon qishloq volosti Xayrobod qishlog‘idagi Bahriniso maktabida 5 nafar qiz bola o‘qigan va bir nafar otinoyi dars bergen;

2. 1851 yili qurilgan O‘zgan volosti O‘zgan qishlog‘idagi Sotvoldi xalifa maktabida 15 nafar qiz bolaga bir nafar otinoyi dars bergen;

3. 1861 yili barpo etilgan Xakan volosti Darxon qishlog‘idagi Mulla Kabir xalifa maktabida 5 nafar o‘g‘il bola, 13 nafar qiz bola o‘qigan va 1 nafar otinoyi dars bergen⁴;

4. 1865 yili barpo etilgan Yorboshi volosti Bo‘taqora qishlog‘idagi Xojar bibi maktabida 20 nafar qizlar o‘qigan, bir nafar otinoyi mashg‘ulot olib borgan;

5. 1871 yili qurilgan Andijon shahri Xo‘ja Shahon mahallasidagi Xo‘ja Shahon maktabida 4 o‘g‘il bola, 4 qiz bola o‘qigan. Bir nafar domulla dars bergen;

³ 1 Sultonov O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari... – B.161.

⁴ O‘zR MDA. I.1-fond, 11-ro‘yxat, 326-ish, 5-varaq.

6. 1874 yili qurilgan Xakan volosti Guliston qishlog‘idagi Xo‘jamberdiboy maktabida 2 nafar o‘g‘il bola, 12 nafar qiz o‘qigan va bir nafar otinoyi mashg‘ulot olib borgan;

7. 1874 yili qurilgan Xakan volosti Sariko‘y qishlog‘i Yaqub Hojiboy maktabida bir nafar o‘g‘il bola, 11 nafar qiz bolalar o‘qigan va bir nafar otinoyi o‘qitgan;

8. 1874 yili qurilgan Andijonning Qoramulla mahallasidagi Mulla So‘fi domulla maktabida 20 nafar o‘g‘il bola va 10 nafar qiz bola o‘qigan. Ayrim maktabdorlar o‘z hovlisida maktab uchun maxsus bino qudirib, unda o‘zi bolalarga saboq bergan. Hujjatda XIX asr Qo‘qon xonligi Namangan bekligiga tegishli 15 ta shunday maktablar ro‘yxatga olingan. Masalan, 1834 yili tashkil etilgan Olmos volosti G‘ova qishlog‘idagi Eshon bobo maktabida 23 nafar bola o‘qigan. Shuningdek, 1855 yili bunyod etilgan Asht volosti Gudas qishlog‘ida Jumanboy xonadonidagi maktabda 22 nafar bola o‘qigan. Bunday maktablar anchagina bo‘lib, ularda 30 nafargacha o‘quvchilar o‘qigan.

Hujjatda uezddagi 10 taga yaqin qiz bolalar maktabi ham ro‘yxatga olingan. 1858 yili bunyod etilgan Varzin volosti Varzin qishlog‘idagi qizlar maktabi Hamida otin Nabieva xonadonida faoliyat ko‘rsatgan. Maktabda 18 nafar qiz otinoyidan saboq olgan. Bundan tashqari, o‘ndan ortiq shu kabi otinoyilar xonadonida ochilgan qizlar maktablari ro‘yxatga olingan. Mavjud ma'lumotlar Namangan bekligida maktabdorlar tomonidan o‘z hovlisida xususiy maktab ochib bolalarmi o‘qitish Andijon bekligiga nisbatan ancha keng tarqalganini ko‘rsatadi⁵.

Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, madaniy- ma'naviy hayotiga oid izlanishlarda xonlikdagi ta‘lim tizimi, mahalliy an'anaviy ta‘lim sohasi deyarli tadqiq etilmagan. Xususan, xonlikdagi maktab va madrasalar faoliyati, o‘qitish tizimi va uslublari, ta‘lim muassasalari faoliyatining jihatlari, iqtisodiy ta'minot masalalarini birlamchi manbalar asosida tadqiq etish tarix fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdullaev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1960. – 150 b.
2. Abdirashidov Z. Ismail Gaspirinskiy i Turkestan v nachale XX veka: svyazi – otnosheniya – vliyanie. – Tashkent: Akademnashr, 2011. – 184 s.
3. Azimov I. Arxitekturnie pamyatniki Ferganskoy dolini. – Tashkent: Uzbekistan, 1982. – 78 s.
4. Akramov I. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati madrasalari // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1994. – №3 – 4. – B.54 – 58.
5. Alimov I.A. Eski maktab islohoti tashabbuskori // Xalq ta‘limi. – Toshkent, 1993. – №10 – 12. – B.5 – 8.

⁵ Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni. disser. T.:2012